UO‘K 94(575.1):902/904:39

TURONDA HUNARMANDCHILIK MAHALLALARI TARIXI VA ULARNING IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTDA TUTGAN O‘RNI

O.O. Po‘latov

Maqolada Turon hududida hunarmandchilik mahallalarining vujudga kelish omillari, ularning shahar tuzilmasi va iqtisodiy hayotda tutgan o‘rni o‘rganilgan. Tahlillar Turon hududida hunarmandchilik mahallalari asosan bozorlarga, savdo yo‘llariga va suv manbalariga yaqin joylashuvi ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, savdo aloqalarini kuchaytirganini ko‘rsatdi. Ustoz-shogird an’analari kasbiy tajribaning uzluksiz davom etishiga xizmat qilgani ochib berildi.

Kalit so‘zlar: *Turon, hunarmandchilik, daha, mahalla, guzar, kulol, temirchi, turar-joy, ustaxona, uyushma.*

В статье исследуются факторы возникновения ремесленных махаллей на территории Турана, их роль в городской структуре и экономической жизни. Анализируется расположение ремесленных махаллей вблизи рынков, торговых путей и источников воды, что способствовало повышению эффективности производства и укреплению торговых связей. Выявлено, что традиции ученичества и наставничества обеспечивали преемственность профессионального опыта и развитие ремесленной среды.

Ключевые слова: *Туран, ремесленные махалли, ремесло, гузар, гончар, кузнец, мастерская, ученичество, наставничество.*

KIRISH

Mamlakatimiz tarixida hunarmandchilik jamiyat taraqqiyotining asosiy iqtisodiy va madaniy omillaridan biri sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. O‘lkamizda hunarmandchilik an’analari chuqur tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, uning shakllanishi va rivojlanishi kishilik jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlarining takomillashuvi hamda shahar madaniyatining vujudga kelishi bilan uzviy bog‘liqdir. Hunarmandchilik faqat maishiy ehtiyojlarni qondiruvchi ishlab chiqarish sohasi bo‘libgina qolmay, balki madaniy meros, badiiy did, texnologiyaviy bilimlar va ijtimoiy munosabatlarni o‘zida mujassam etgan ko‘p qirrali tarixiy-ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan, hunarmandchilik mahsulotlari arxeologik tadqiqotlarda xronologik ko‘rsatkich, madaniy indikator va aholi turmush tarzini belgilashda muhim ilmiy manba vazifasini bajaradi [1. B. 5].

Mazkur tadqiqotning maqsadi Turon hududida qadimdan shakllangan hunarmandchilik mahallalarining paydo bo‘lish jarayoni, ularning shaharsozlik tizimidagi funksional o‘rni, iqtisodiy tuzilmadagi ahamiyati va ijtimoiy munosabatlar tizimida tutgan mavqeyini kompleks tarzda ilmiy tahlil qilishdan iborat. Ushbu muammo hozirga qadar maxsus tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o‘rganilmagan bo‘lib, mavjud ishlar asosan shahar tarixi, arxeologiya yoki etnografiya doirasida parcha holda yoritilgan. Shu bois hunarmandchilik mahallalarini shahar iqtisodiyoti, mehnat taqsimoti, aholi joylashuv tizimi va madaniy muhit bilan bog‘liq holda tadqiq etish ilmiy nuqtayi nazardan dolzarb vazifa hisoblanadi.

MATERIAL VA USULLAR

Maqolada qo‘yilgan muammoni yoritishda M.Isomiddinov, A.Yarqulovning “Naxshab hunarmandchiligi tarixi” [1], M.Hamidovaning “Qashqadaryo vohasi hunarmandchiligi tarixi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)” [2], A.Asqarovning “O‘zbekiston janubi bronza davriga oid qadimgi dehqonchilik madaniyati” (“Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана”) [3], Sh.Shorahimovning “Afrosiyob kulollarining mahallalari” [4], A.Belenitskiyning “XV–XVI asrlarda Samarqand-

da hunarmandchilik birlashmalari” (“Организация ремесла в Самарканде XV–XVI вв”) [5], R.Qilichevning “Buxoro shahrida hunarmandchilik (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari)” [6], R.Mukminovaning “XVI asr Samarqand va Buxorodagi hunarmandchilik tarixiga oid ocherklar” (“Очерки по истории ремесла в Самарканде и Бухаре в XVI в.”) [7] asarlari asosiy manba bo‘lib xizmat qildi.

Muammoni o‘rganishda qiyoslash, tarixiy manbashuboslik, tarixiy tipologik, tarixiy rekonstrukiya tahlil metodlaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, Turon shaharlari ma’muriy va ijtimoiy jihatdan murakkab tuzilmaga ega bo‘lib, ular dahalarga, dahalar esa mahallalarga bo‘lingan holda shakllangan. Bu tizim shahar boshqaruvini samarali tashkil etish, aholi joylashuvini tartibga solish va ishlab chiqarish faoliyatini muvofiqlashtirishga xizmat qilgan. Hunarmandchilikning rivojlanishi natijasida muayyan kasb egalari bir hududda jamlanib, ixtisoslashgan mahallalar va ishlab chiqarish markazlarini vujudga keltirgan. Bunday ixtisoslashuv shahar iqtisodiyotining tarmoqlarga ajralishi, mehnat taqsimotining chuqurlashuvi va bozor munosabatlarining shakllanishiga asos bo‘lgan. Shuningdek, hunarmandchilik mahallalari shahar infratuzilmasining muhim qismi sifatida savdo yo‘llari, bozorlar va suv manbalariga yaqin hududlarda joylashgani kuzatiladi.

Arxeologik tadqiqotlar Turon hududida hunarmandchilikning ilk ko‘rinishlari neolit davriga borib taqalishini ko‘rsatadi. Ayniqsa, to‘quvchilik va kulolchilik sohalari ana shu davrda yuzaga kelgan bo‘lib, ular aholining o‘troq turmush tarziga o‘tishi bilan bog‘liq holda rivojlangan. Eneolit davriga kelib metallga ishlov berish texnologiyasining shakllanishi hunarmandchilik taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Bronza davrida esa metallurgiya, qurolsozlik, zargarlik, suyak va toshga ishlov berish kabi sohalar keng rivojlanib, ishlab chiqarishning kasbiy ixtisoslashuvi kuchaydi [2. B. 5]. Bu jarayon dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari bilan hunarmandchilik buyumlari o‘rtasidagi ayirboshlash munosabatlarining shakllanishiga, natijada esa mahalliy bozor tizimining paydo bo‘lishiga olib keldi.

Hunarmandchilik mahallalarining shakllanishi ijtimoiy tashkilotchilikning yangi bosqichini ham ifoda etadi. Bir xil kasb egalari bir joyda yashab, ishlab chiqarish va bilim almashish jarayonini yo‘lga qo‘yganlar. Bu esa ustoz-shogird an’anasining shakllanishi, kasbiy sirlarning avloddan avlodga o‘tishi va mahalliy ishlab chiqarish maktablarining paydo bo‘lishiga zamin yaratgan. Shu bilan birga, kasb-hunarlar bilan bog‘liq mahalla nomlarining yuzaga kelishi shahar toponimikasida ham o‘z aksini topgan.

Turonda hunarmandchilik mahallalarining qadimiy ildizlarini arxeologik dalillar orqali kuzatish mumkin. Jumladan, Sopollitepa yodgorligidan topilgan sopol idishlar sirtidagi belgilar bu masalada muhim ilmiy ahamiyatga ega. Tadqiqotlar natijasida 29 ta idishdan 8 turdagi ramz aniqlangan bo‘lib, dastlab ular kulol ustaxonalari tamg‘alari sifatida talqin qilingan [8. B. 138]. Biroq mazkur belgilarning faqat ayrim idishlarda uchrashi, shuningdek, ularning munchoq va tumorlarda ham qayd etilishi bu fikrni to‘liq tasdiqlamaydi.

Ilmiy qarashlarga ko‘ra, ushbu ramzlar muayyan oila, urug‘ yoki mahalla jamoalariga tegishli belgilar bo‘lishi mumkin. Sopollitepaning 8 ta mahalladan iboratligi [3. B. 16] arxeologik jihatdan aniqlangani mazkur belgilar mahalla ramzlari sifatida xizmat qilgan bo‘lishi ehtimolini kuchaytiradi.

Ushbu holat hunarmandchilik mahallalarining paydo bo‘lishi faqat iqtisodiy omillar bilan emas, balki ijtimoiy birlashuv, hududiy o‘zlikni anglash, muhofaza va mehnatni tashkil etish zarurati bilan ham bog‘liq bo‘lganini ko‘rsatadi. Shu ma’noda, hunarmandchilik mahallalari shaharning funksional zonalashuvini ta’minlab, ishlab chiqarish, savdo va yashash hududlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni shakllantirgan. Demak, ularni o‘rganish shahar iqtisodiyoti tarixi bilan bir qatorda, ijtimoiy tuzilish, madaniy jarayonlar va shaharsozlik evolyutsiyasini ham chuqur anglash imkonini beradi.

Shu tariqa Turon hududida hunarmandchilik mahallalarining shakllanishi uzoq davom etgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarning mahsuli bo‘lib, ularni kompleks tadqiq etish mintaqaning shahar madaniyati va iqtisodiy tarixi taraqqiyotini ilmiy jihatdan qayta tiklashda muhim ahamiyatga ega.

Yerqo‘rg‘on hududi arxeologik va tarixiy manbalar tahliliga ko‘ra, qadimgi shahar madaniyati rivojlangan yirik markazlardan biri sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ushbu yodgorlik hududida aniqlangan hunarmandchilik mahallalari shahar iqtisodiyotining ixtisoslashgan tarmoqlar asosida shakllanganini, ishlab chiqarish jarayonlari muayyan hududlarda maqsadli ravishda tashkil etilganini ko‘rsatadi. Yerqo‘rg‘onda kulolchilik va metallsozlik sohalari yuqori darajada rivojlangan bo‘lib, bu holat shaharning mintaqaviy iqtisodiy tizimda muhim o‘rin tutganini anglatadi.

Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, yodgor-

likning sopol buyumlar saqlash omboridan topilgan savatcha va unga tegishli ashyolar ishlab chiqarish va savdo jarayonlari o‘zaro chambarchas bog‘liq holda amal qilganini tasdiqlaydi. Savatcha yuzasidagi yaltiroq toshlar, temir pichoq, ikki tomonlama tasvirga ega muhr kabi topilmalar kulolchilik ustaxonalari faoliyatining tashkiliy jihatdan mukammal bo‘lganini ko‘rsatadi. Muhrning bir tomonida o‘simliksimon bo‘rtma naqsh, ikkinchi tomonida esa o‘rtasida nuqtasi bo‘lgan yarim oy shaklidagi tasvir mavjudligi uning muayyan ustaxona, hunarmand yoki mahalla belgisi sifatida qo‘llangan bo‘lish ehtimolini kuchaytiradi [1. B. 17]. Bu kabi ramziy belgilarning Afrosiyob yodgorligidan ham aniqlanishi [9. B. 103] Yerqo‘rg‘on aholisi bilan Samarqand vohasi o‘rtasidagi madaniy-iqtisodiy aloqalar tizimli va barqaror xarakterga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Demak, Yerqo‘rg‘on nafaqat mahalliy, balki mintaqaviy aloqalar doirasida ham faol ishtirok etgan hunarmandchilik markazi bo‘lgan.

Yerqo‘rg‘ondagi metallsozlar mahallasi shaharning ichki va tashqi devorlari orasida joylashgani [1. B. 32] ishlab chiqarish jarayoni shahar mudofaa tizimi va funksional zonalashuvi bilan bog‘liq ravishda rejalashtirilganini anglatadi. Arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra, mazkur hududda taxminan o‘ttizga yaqin xonadon faoliyat yuritgan. U yerdan topilgan metall buyumlar parchalari, ko‘mir va kul qoldiqlari, temirni silliqlash va tekislashda ishlatilgan toshlar, yarmi yerga ko‘milgan ko‘zalar hamda sigir shohi parchalari metallga ishlov berish jarayoni bir necha bosqichli va murakkab texnologiyalarga asoslanganini ko‘rsatadi. Bu dalillar temirni oddiy qayta ishlash emas, balki uni boyitish, mustahkamlash, bezash va sifatini oshirish kabi maxsus usullar qo‘llanganidan dalolat beradi. Shu jihatdan Yerqo‘rg‘onda metallsozlik yuqori darajada ixtisoslashgan kasbiy faoliyat bo‘lgani ayon bo‘ladi.

Kulolchilik mahallasidagi xonadonlar tuzilishi ham ijtimoiy-iqtisodiy hayotning o‘ziga xos jihatlarini aks ettiradi. Uylarda ibodat qilish, mehmon qabul qilish va qishki sandal o‘rnatish uchun mo‘ljallangan alohida xonalar mavjudligi kulollar uy-joylari ko‘p funksiyali bo‘lganini, ya’ni yashash va ishlab chiqarish jarayonlari bir makonda uyg‘unlashganini ko‘rsatadi. Bu holat hunarmandchilik oilaviy mehnat asosida tashkil etilganini anglatadi. Metallsozlar mahallasidagi binolar esa asosan ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo‘lib, ularning aksariyatidan ish jarayoniga tegishli ashyolar topilgan. Bu metallsozlik ustaxonalari alohida ishlab chiqarish zonasi sifatida shakllanganini, yashash va mehnat makonlari o‘rtasida muayyan ajralish mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Metallsoz hunarmandlar oilalarining boshqa mahallalarda yashagani ehtimoli mazkur hunarning xavfli, yuqori haroratli va shovqinli ish jarayoni bilan izohlanishi mumkin. Bu amaliyot shahar ichida xavfsizlikni ta’minlash va ishlab chiqarish jarayonini samarali tashkil etish maqsadida yo‘lga qo‘yilgan bo‘lishi ehtimol.

Yerqo‘rg‘onda kulolchilik va metallsozlik mahallalarida yo‘l bo‘yida joylashgan alohida xonalarning do‘kon sifatida foydalanilgani shaharda ishlab chiqarish va savdo tizimi o‘zaro uyg‘un rivojlanganini ko‘rsatadi. Bu do‘konlar hunarmandlarga mahsulotni to‘g‘ridan-to‘g‘ri iste’molchiga yetkazish, bozor talabini kuzatish va iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish imkonini bergan. Shu tariqa Yerqo‘rg‘onda hunarmandchilik mahallalari nafaqat ishlab chiqarish markazi, balki shahar iqtisodiy infratuzilmasining muhim tarkibiy qismi sifatida faoliyat yuritgan.

Qang‘ davlati hududiga kirgan shaharlarda aholining katta qismi hunarmandchilik bilan shug‘ullangani arxeologik va yozma manbalar orqali tasdiqlanadi. Temirchilik, to‘qimachilik, ko‘nchilik, duradgorlik va kulolchilik kabi sohalar shahar iqtisodiy hayotining asosiy ustunini tashkil etgan. Yirik shaharlarda har bir hunar sohasi vakillari muayyan mahallalarda joylashgani ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va mahsulot ayirboshlashni tizimlashtirish imkonini bergan. Qovunchitepadan topilgan kulolchilik buyumlarida hayvonlar boshi tasvirlarining uchrashi, Banokatdan topilgan dastasi hayvon shaklida yasalgan va qora bo‘yoq bilan bezatilgan sopol idishlar aholi turmushida chorvadorlik muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi [10. B. 19]. Shu bilan birga, jun va paxtadan to‘qilgan matolarning ko‘pligi dehqonchilik va to‘qimachilik o‘zaro bog‘liq holda rivojlanganini anglatadi.

Umuman olganda, Yerqo‘rg‘on va Qang‘ davlati shaharlari misolida hunarmandchilik mahallalari shahar iqtisodiy tizimining asosiy tarkibiy qismi, mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv jarayonining muhim ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning shakllanishi shahar madaniyatining yuksalishi, bozor munosabatlarining rivojlanishi va mintaqaviy aloqalarning kengayishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu holat Turon hududida qadimgi shahar sivilizatsiyasi yuksak darajada shakllanganini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Afrosiyob shahri, arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, Markaziy Osiyoning eng yirik shahar madaniyati markazlaridan biri sifatida hunarmandchilikning yuksak taraqqiyot darajasini namoyon etadi. Shaharda turli ishlab chiqarish sohalariga ixtisoslashgan mahallalarning shakllangani mehnat taqsimoti va iqtisodiy ixtisoslashuv jarayoni chuqurlashganini ko‘rsatadi. Hunarmandlar yashagan uylardan kulolchilik xumdonlari, sopol va shisha idishlar, tangalar hamda ishlab chiqarishga oid ashyolarning topilishi bu hududda ishlab chiqarish va savdo jarayonlari bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanganini anglatadi. Bu holat Afrosiyobning nafaqat ma’muriy va madaniy

markaz, balki mintaqaviy iqtisodiy aloqalar tizimida muhim o‘rin tutgan shahar bo‘lganini ko‘rsatadi.

Afrosiyobdan uchta kulollar mahallasining aniqlanishi shahar hududida ishlab chiqarish zonalari maqsadli ravishda joylashtirilganini tasdiqlaydi. Shaharning shimoliy qismida joylashgan, milodiy V–VII asrlarga mansub kulollar mahallasi bu yerda hunarmandchilik faoliyati uzoq davom etganini ko‘rsatadi. Ushbu hududdan so‘g‘d tangalari, turli rangli shisha idishlar va kulolchilik ustaxonalarining topilishi Afrosiyob xalqaro savdo yo‘llari bilan bog‘liq bo‘lganini, mahalliy hunarmandchilik mahsulotlari esa bozor munosabatlarida faol ishtirok etganini anglatadi. Bu topilmalar shahar iqtisodiyoti pul munosabatlariga asoslanganini va hunarmandchilik mahsulotlari savdo aylanmasiga kiritilganini ko‘rsatadi.

Shaharning g‘arbiy qismida joylashgan ikkinchi kulollar mahallasida bir necha xumdonlar va ustaxonalarning aniqlanishi bu hududda ishlab chiqarish faoliyati markazlashgan holda tashkil etilganini ko‘rsatadi. Mazkur mahallaning Chingizxon bosqini davrida vayron qilingani arxeologik qatlamlar tahlili orqali tasdiqlanadi [4. B. 39–46] va bu holat shahar iqtisodiy tizimiga bosqinlar katta ta’sir ko‘rsatganini anglatadi. Uchinchi kulollar mahallasi shahar markazida joylashgan bo‘lib, uning asosiy ko‘chalardan biri bilan kesishishi mazkur hudud ishlab chiqarish va savdo nuqtayi nazaridan ancha gavjum bo‘lganini ko‘rsatadi. Ko‘chaning ikki tomonida kulollar uylari va xumdonlarining joylashgani hunarmandchilik ustaxonalari savdo infratuzilmasi bilan chambarchas bog‘liq holda faoliyat yuritganini anglatadi [4. B. 39–46]. Bu holat shahar markazi ishlab chiqarish, savdo va aholi harakati nuqtayi nazaridan o‘zaro uyg‘unlashgan funksional makon bo‘lganini ko‘rsatadi.

Axsikent shahrida olib borilgan arxeologik qazishmalar ham mintaqada metallsozlik yuqori darajada taraqqiy etganini tasdiqlaydi. XI–XII asrlarga oid temir va mis eritish pechlari, ustaxonalardagi toblash o‘choqlarining aniqlanishi bu shaharda metallga ishlov berish texnologiyalari mukammallashganini ko‘rsatadi. Bu yerda qurilish va xo‘jalik ehtiyojlari uchun ishlatiladigan oddiy buyumlar bilan birga qilich va xanjarlar ishlab chiqarilgani metallsozlik faqat maishiy ehtiyojlarni emas, balki harbiy sohani ham ta’minlaganini anglatadi. Axsikent po‘lati egiluvchanligi va mustahkamligi bilan mashhur bo‘lib, po‘lat tayyorlash jarayonida tigeldan mahsulotni ajratib olish uchun uni sindirish usuli qo‘llangani metallurgiya texnologiyasi yuqori darajada rivojlanganini ko‘rsatadi. Bu usul po‘lat tarkibini nazorat qilish va sifatini oshirishga xizmat qilgan [11. B. 19].

Hunarmandlar po‘lat tayyorlash sirlarini yaxshi bilganlari va ularni maxfiy saqlaganlari kasbiy bilimlar meros tarzida avloddan avlodga o‘tganini ko‘rsatadi. Axsikentda temirchilik, misgarlik va zargarlikka ixtisoslashgan mahallalarning mavjudligi metallsozlik tarmoqlarga ajralib, yuqori darajada ixtisoslashganini tasdiqlaydi. Bu holat shaharda ishlab chiqarish jarayonining bosqichlarga bo‘linganini, har bir tarmoq muayyan texnologik vazifani bajarganini va umumiy iqtisodiy tizim o‘zaro bog‘liq holda faoliyat yuritganini anglatadi.

Umuman olganda, Afrosiyob va Axsikent shaharlari misolida hunarmandchilik mahallalari shahar iqtisodiyotining asosiy tarkibiy qismi, mehnat taqsimoti va ishlab chiqarish ixtisoslashuvining muhim ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu shaharlarda hunarmandchilikning yuksak taraqqiyoti shahar madaniyatining rivojlanishi, savdo aloqalarining kengayishi va mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning kuchayishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, Turon hududida shahar sivilizatsiyasi yuqori darajada shakllanganini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Temuriylar davrida shaharlarni muayyan hunar turlariga ixtisoslashtirishga qaratilgan siyosat shahar tuzilishi, ishlab chiqarish infratuzilmasi va iqtisodiy munosabatlar tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Bu davrda markazlashgan davlat boshqaruvi va savdo aloqalarining kengayishi shahar iqtisodiyotida hunarmandchilik tarmoqlarining rolini yanada oshirgan. Natijada zargarlik, sovutsozlik, toshtarovchilik, ko‘nchilik, kamonchilik, shishasozlik, pichoqchilik va misgarlik kabi sohalarga ixtisoslashgan mahallalar shakllanib, ishlab chiqarish jarayoni muayyan hududlarda markazlashgan holda tashkil etilgan [12. B. 101]. Bu holat mehnat taqsimoti chuqurlashganini, kasbiy ixtisoslashuv mustahkamlanganini va shahar iqtisodiyotida tarmoqlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik kuchayganini ko‘rsatadi.

Yozma manbalar ham bu jarayonni tasdiqlaydi. Jumladan, Zahiriddin Muhammad Bobur Samarqand shahri haqida bergan ma’lumotlarida to‘quvchilik, tikuvchilik, bo‘yoqchilik, kulolchilik, metallga ishlov berish va qog‘oz ishlab chiqarish yuqori darajada rivojlanganini qayd etadi. Uning yozishicha, hunarmandlar bozorda alohida rastalarga ega bo‘lib, har bir soha mustaqil tarzda faoliyat yuritgan [13. B. 30]. Bu ma’lumot shahar iqtisodiyotida hunarmandchilik ishlab chiqarishi bozor tizimi bilan uzviy bog‘langanini, mahsulot ayirboshlash va savdo munosabatlari muayyan tartib asosida yo‘lga qo‘yilganini ko‘rsatadi.

Hunarmandchilik tarmoqlari nomlari bilan bog‘liq mahallalarning shakllanishiga ayni tarmoqning jadal rivojlanishi turtki bo‘lgan. Masalan, temuriylar davrida shishasozlik taraqqiy etishi natijasida Shohruhiya shahrida shishasozlar mahallasi vujudga kelgan. Qazishmalar jarayonida bu shaharda kulolchilik va

metallsozlik mahallalari bilan bir qatorda shishasozlik ustaxonalarining aniqlanishi ushbu sohaning keng rivojlanganini ko‘rsatadi. Bu holat shisha buyumlarga bo‘lgan talab yuqori bo‘lganini, ayniqsa, ularning me’moriy bezak, maishiy idishlar va savdo mahsuloti sifatida keng qo‘llanganini anglatadi. Shuningdek, bu shaharlarning xalqaro savdo yo‘llari bilan bog‘liq bo‘lganini va madaniy aloqalar tizimida faol ishtirok etganini ko‘rsatadi. Shu tariqa Turon shaharlarida hunarmandchilik mahallalari ishlab chiqarishni tashkil etish, bozor munosabatlarini shakllantirish va shahar iqtisodiy hayotini yuksaltirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilgan.

O‘lkamizga tashrif buyurgan chet ellik sayohatchilarning kuzatuvlari ham Turkiston shaharlarida hunarmandchilikka ixtisoslashgan mahallalar mavjud bo‘lganini tasdiqlaydi. Masalan, XIX asr oxirida Buxoroda bo‘lgan daniyalik tadqiqotchi va harbiy ofitser Ole Olufsen shaharda har bir hunarmandlar guruhining alohida mahallasi mavjudligini qayd etadi. Uning ma’lumotlariga ko‘ra, Buxoroda degrezlar, ignagarlar, kulollar, teri oshlovchilar, metallsozlar, mo‘ynado‘zlar kabi hunarmandlar maxsus mahallalarda yashagan va ishlab chiqarish faoliyatini shu yerda olib borgan [14. B. 338]. Bu ma’lumotlar shahar iqtisodiy hayotida hunarmandchilikning markaziy o‘rin tutganini, mehnat taqsimoti chuqurlashganini va kasbiy uyushmalar muayyan hududiy shaklga ega bo‘lganini ko‘rsatadi.

Samarqand shahrida ham, ayniqsa, temuriylar davrida hunarmandchilik yuqori darajada ixtisoslashgan. XVI asrga kelib, to‘quvchilik sohasi tor ixtisosliklarga ajralib, olachaboflar, ipakdo‘zlar, futaboflar kabi alohida tarmoqlarga bo‘lingan va ularning nomlari bilan atalgan mahallalar shakllangan [5. B. 43]. Bu holat hunarmandchilik faqat iqtisodiy jarayon emas, balki shaharning ijtimoiy va hududiy tuzilishiga ham ta’sir ko‘rsatganini anglatadi. Mahallalarning kasbkorlar asosida shakllanishi aholining joylashuv tizimini tartibga solish, ishlab chiqarishni tashkil etish va bozor infratuzilmasini rivojlantirishga xizmat qilgan. Bunday jarayon Turonning boshqa shaharlarida ham kuzatilib, har bir hunar turi muayyan hududga ixtisoslashgan holda rivojlangani shahar iqtisodiyotida tarmoqlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va funksional zonalashuv kuchayganini ko‘rsatadi.

Shu tariqa temuriylar davri shaharlarida hunarmandchilik mahallalari iqtisodiy faoliyatni tashkil etish, mehnat taqsimotini mustahkamlash va shahar infratuzilmasini rivojlantirishda asosiy omillardan biri bo‘lgan. Bu jarayon shahar madaniyatining yuksalishi, savdo munosabatlarining kengayishi va Turon hududidagi shahar sivilizatsiyasining barqaror iqtisodiy poydevorga ega bo‘lganini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Hunarmandchilik mahallalarining shahar hududida joylashuvi, avvalo, ishlab chiqarish jarayonining ekologik va amaliy talablari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. Ayrim hunar turlari atrof-muhitga ta’siri, ish jarayonida talab etiladigan resurslar va sanitar talablar nuqtayi nazaridan shahar ichida yoki uning muayyan qismlarida joylashtirilgan. Masalan, teri oshlash jarayonida kuchli hid chiqishi, katta hajmda suv va keng maydon talab qilinishi sababli ko‘nchilar mahallalari odatda shahar tashqarisida yoki uning chekka hududlarida joylashgan [6. B. 23]. Ularning daryo, ariq yoki boshqa suv manbalari yaqinida joylashtirilishi ishlab chiqarish jarayonining texnologik talablari bilan izohlanadi. Xuddi shu kabi gilam to‘quvchilar mahallalari ham ko‘p hollarda suv manbalariga yaqin hududlarda joylashgan bo‘lib, bu ipni yuvish, bo‘yash va tayyor mahsulotni ishlovdan o‘tkazish jarayonlarini yengillashtirgan [15. B. 385]. Bu holat shahar qurilishida hunar turining texnologik xususiyatlari va sanitar talablar hisobga olinganini ko‘rsatadi.

Hunarmandchilik sohalariga ixtisoslashuv an’anasi keyingi davrlarda ham saqlanib qolgan. Rus podsholigi davrida ham shaharlarning hududiy tuzilishida kasb-korlar asosida nomlangan mahallalar mavjud bo‘lib, bu holat joy nomlarida o‘z aksini topgan. Masalan, Xiva shahrida mavjud bo‘lgan o‘ttizdan ortiq mahallaning ko‘pchiligi aholining kasb-koriga qarab nomlangani ma’lum. Elakchilar, kulollar, misgarlar kabi mahalla nomlari shahar aholisining katta qismi hunarmandchilik bilan shug‘ullanganini ko‘rsatadi [16. B. 291–292]. Bu holat an’anaviy hunarmandchilik tizimi mustamlaka davrida ham iqtisodiy hayotning muhim tarkibiy qismi bo‘lib qolganini anglatadi.

Hunarmandchilik mahallalarining shaharda joylashuvi kasbning xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Masalan, zargarlar mahallasi odatda shahar markaziga yaqin joylashgan, chunki qimmatbaho metallar va zeb-ziynat buyumlarini sotishda bozorga yaqinlik muhim ahamiyat kasb etgan. Kulollar, ko‘nchilar va gilam to‘quvchilar esa ko‘p hollarda shahar chekkalarida yoki suv manbalariga yaqin hududlarda joylashgan. Temirchi ustalar aksariyat hollarda shahar atrofidagi qishloqlarda yashagan, chunki ularning ishlab chiqarish jarayoni keng maydon, ko‘p miqdorda yoqilg‘i va maxsus sharoit talab qilgan. Ular tayyorlagan taqalar, g‘ildirak qismlari, qozonlar, moychiroqlar va uy-ro‘zg‘or buyumlari shahar va qishloq xo‘jaligining kundalik ehtiyojlarini ta’minlagan.

Hunarmandchilik ustaxonalari odatda bozorlar yaqinida joylashgan bo‘lib, bozor hunarmandlar uchun nafaqat savdo maydoni, balki ishlab chiqarish, buyurtma qabul qilish va mahsulotni namoyish etish

markazi vazifasini ham bajargan. Turkiston general-gubernatori vakili Krestovskiy o‘z yozishmalarda bozor rastalari yonida ustaxonalar joylashganini qayd etib, hunarmandlar mahsulotni shu yerda tayyorlab, shu yerda sotganini ta’kidlaydi [17. B. 303]. Bu holat bozor infratuzilmasi ishlab chiqarish jarayoni bilan uzviy bog‘langanini va shahar iqtisodiyotida bozorning markaziy o‘rin tutganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bu davrda xususiy ustaxonalar bilan bir qatorda davlat ustaxonalari, amir va xonlarga tegishli saroy ustaxonalari ham faoliyat yuritgan. Bunday ustaxonalarda hukmron tabaqa, saroy amaldorlari va harbiylar uchun maxsus buyumlar tayyorlangani hunarmandchilikning davlat boshqaruv tizimi va harbiy-ma’muriy ehtiyojlar bilan ham bog‘liq bo‘lganini anglatadi.

Hunarmandchilik mahallalarining vujudga kelishi mehnat taqsimoti, kasbiy ixtisoslashuv va bozor munosabatlarining shakllanishi natijasi bo‘lib, ular shahar iqtisodiy tizimining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Bunday mahallalar ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish, mahsulot ayirboshlashni tizimlashtirish va shahar iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda asosiy rol o‘ynagan. Shu jihatdan, hunarmandchilik mahallalari nafaqat ishlab chiqarish markazi, balki ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, madaniy an’analar va shahar muhitini shakllantiruvchi muhim omil sifatida baholanishi mumkin.

XULOSA

Tadqiqot davomida tahlil qilingan arxeologik materiallar, yozma manbalar va sayohatchilar qaydlari Turon hududida hunarmandchilik mahallalari shahar sivilizatsiyasining shakllanishi va rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etganini ko‘rsatadi. Hunarmandchilik mahallalari tasodifiy yoki faqat maishiy ehtiyoj natijasi sifatida emas, balki mehnat taqsimoti, ixtisoslashuv va iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi bilan bog‘liq tizimli jarayon sifatida vujudga kelgan. Arxeologik topilmalar, jumladan, kulolchilik xumdonlari, metall eritish pechlari, ustaxonalar va maxsus ishlab chiqarish inshootlarining aniq bir hududlarda jamlangani hunarmandchilik faoliyati shahar makonini tashkil etishda asosiy omillardan biri bo‘lganini ko‘rsatadi. Shu tariqa hunarmandchilik mahallalari shahar iqtisodiyoti, ijtimoiy tuzilish va madaniy taraqqiyotning o‘zaro bog‘liq tizimini shakllantirgan muhim institut sifatida namoyon bo‘ladi.

Qadimgi davrlardanoq hunarmandchilik mahallalari ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, resurslardan samarali foydalanish va mahsulot ayirboshlashni tartibga solish vazifasini bajargan. Kulolchilik, metallsozlik, to‘qimachilik, ko‘nchilik va boshqa sohalarning alohida mahallalarda joylashishi ishlab chiqarish jarayonini markazlashtirgan, texnologiyalarni saqlash va avlodlar orasida uzatishni osonlashtirgan. Bu holat hunarmandchilik bilim va ko‘nikmalari ustoz-shogird an’anasi orqali saqlanganini, mahallalar esa ushbu jarayonning institutsional asosini tashkil etganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mahallalarning joylashuvi ekologik talablar, suv manbalariga yaqinlik, xavfsizlik va savdo yo‘llariga nisbatan qulaylik kabi omillar bilan belgilangani shahar qurilishi va iqtisodiy rejalashtirish an’analari yuqori darajada bo‘lganini tasdiqlaydi.

Afrosiyob, Yerqo‘rg‘on, Axsikent va Shohruhiya kabi markazlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, hunarmandchilik mahallalari faqat ishlab chiqarish hududi emas, balki savdo, moliyaviy munosabatlar va madaniy aloqalar markazi vazifasini ham bajargan. Ularda ustaxonalar, omborlar, bozor rastalari va turar-joy binolari bir-biriga yaqin joylashgan bo‘lib, bu holat shahar iqtisodiy tizimining kompleks tarzda tashkil etilganini anglatadi. Masalan, kulollar mahallalarida xumdonlar va omborlar bilan birga savdo nuqtalari mavjud bo‘lgani mahsulot ishlab chiqarish va uni realizatsiya qilish jarayonlari bir makonda amalga oshirilganini ko‘rsatadi. Metallsozlik mahallalarida esa maxsus pechlar, yoqilg‘i zaxiralari va texnologik jihozlarning topilishi bu sohada yuqori darajadagi texnik bilim va ishlab chiqarish madaniyati shakllanganini tasdiqlaydi.

O‘rta asrlar davriga kelib, hunarmandchilik mahallalari davlat iqtisodiy siyosati bilan ham uzviy bog‘landi. Temuriylar davrida shaharlarni muayyan hunar turlariga ixtisoslashtirish siyosati ishlab chiqarish tarmoqlarining yanada chuqurlashuviga olib keldi. Bu jarayon shaharlar o‘rtasidagi savdo aloqalarini kuchaytirib, xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirdi. Manbalarda qayd etilgan alohida rastalar va ustaxonalar tizimi hunarmandchilikning bozor infratuzilmasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, saroy ustaxonalarining mavjudligi hunarmandchilik davlat boshqaruv tizimi va saroy madaniyati bilan ham bog‘liq bo‘lganini, ayrim mahsulotlar maxsus buyurtmalar asosida tayyorlanganini anglatadi.

Chet ellik sayohatchilarning kuzatuvlari ham Turkiston shaharlarida hunarmandchilik mahallalari barqaror institutsional tizim sifatida mavjud bo‘lganini tasdiqlaydi. XIX asrga kelib ham shaharlarda kasbga ixtisoslashgan mahallalar saqlanib qolgani an’anaviy iqtisodiy tizimning uzoq vaqt davomida barqaror bo‘lganini ko‘rsatadi. Bu holat hunarmandchilik mahallalari nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy institut sifa-

tida ham muhim bo‘lganini anglatadi. Ularda kasbiy uyushmalar, o‘zaro yordam va an’anaviy qoidalar asosida faoliyat yuritilgan bo‘lishi ehtimol, bu esa shahar jamiyatida ijtimoiy barqarorlikni ta’minlagan.

Shuningdek, hunarmandchilik mahallalari shahar madaniy muhitini shakllantirishda ham muhim omil bo‘lgan. Har bir mahalla muayyan kasb an’analari, texnologik sirlari va estetik qarashlarini saqlagan holda madaniy merosni avloddan avlodga yetkazgan. Bu jarayon shaharlarda kasbiy madaniyatning shakllanishiga, mahalliy uslub va maktablarning vujudga kelishiga zamin yaratgan.

Adabiyotlar:

1. *Исомиддинов М., Ярқулов А.* Нахшаб ҳунармандчилиги тарихи. –Тошкент: Yangi nashr, 2014. – 215 б.

2. *Ҳамидова М.* Қашқадарё воҳаси ҳунармандчилиги тарихи (XIX аср охири – XX аср бошлари). – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – 162 б.

3. *Аскаров А.* Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1977. – 232 с.

4. *Шораҳимов Ш.* Афросиёб кулолларининг маҳаллалари. // Археологлар ҳикоя қилади. – Тошкент: Фан, 1974. – 71 б.

5. *Беленицкий А*. Организация ремесла в Самарканде XV–XVI вв. / В кн.: Краткие сообщения о докладах и полевых исследованиях института истории материальной культуры. Выпуск VI. – Москва-Ленинград: Издательство Академии Наук СССР. 1940. – С.189–201.

6. *Қиличев Р*. Бухоро шаҳрида ҳунармандчилик (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари). – Тошкент: Фан, 1996. – 49 б.

7. Мукминова Р. Очерки по истории ремесла в Самарканде и Бухаре в XVI в. – Ташкент: Фан, 1976. – 236 с.

8. *Шайдуллаев Ш*. Ўзбекистон ҳудудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари (Бақтрия мисолида): Тарих фан. докт... дисс. – Самарқанд, 2009. – 350 б.

9. *Ремпел Л.И.* Цеп времен. Вековые образы и бродячие сюжеты в традиционном искусстве Средней Азии. – Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гулямф, 1989. – 190 с.

10. *Normurodov D.* Banokat – Shohruxiya. – Toshkent: Fan, 2023. – 56 b.

11. *Анорбоев А., Исломов У., Матбобоев Б*. Ўзбекистон тарихида қадимги Фарғона. – Тошкент: Фан, 2001. – 68 б.

12. *Муҳаммаджонов А.* Темур ва темурийлар салтанати. – Тошкент: Қомуслар, 1994. – 158 б.

13. *Бобур Заҳириддин Муҳаммад.* Бобурнома. – Тошкент: O‘qituvchi: 2008. – 288 б.

14. *Olufsen O*. The Amir of Bukhara and his country. – London: William Heinemann, 1911. – 620 p.

15. History of civilizations of Central Asia. Volume IV. / Editor M.Azimov – Paris: UNESCO publishing, 1996. – 485 p.

16. *Зияева Д.* Ўзбекистон шаҳарлари XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида. – Тошкент: Yangi nashr, 2017. – 440 б.

17. *Крестяковский В.* В гостях у Бухарского эмира. – Санкт-Петербург: Издание А.С.Суворина, 1887. – 474 с.

18. Исомиддинов М., Сулейманов Р. Еркурган (стратиграфия и периодизация). – Ташкент: Фан, 1984. –162 б.

19. *Сухарева О*. Бухара. XIX – начало XX вв. (Позднефеодальный город и его население) – Москва: Наука, 1966. – 332 с.

20. С*ухарева О.А*. К истории городов Бухарского ханства (историко-этнографические очерки). – Ташкент: Фан, 1958. – 329 с.

21. *Ўлжаева Ш.* Амир Темур давлат бошқаруви. – Тошкент: Академнашр, 2017. – 248 б.

22. *Шониёзов К*. Қанғ давлати ва қанғлилар. –Тошкент: Фан 1990. –159 бет.

THE HISTORY OF CRAFT MAHALLAS IN TURON AND THEIR SOCIO-ECONOMIC SIGNIFICANCE

Otabek O. Pulatov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2026. 1 (93). 12-20.

[1]University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, Tashkent, 100017, str. Shakhrisabz, 25 (Uzbekistan). E-mail: info@jmcu.uz

Key words: *Turan, handicrafts, urban quarter, neighborhood, guzar, potter, blacksmith, dwelling, workshop, craft association.*

This article analyzes the emergence, spatial organization, and socio-economic functions of craft mahallas in the cities of the Turan region. The study aims to identify the historical conditions that led to the formation of specialized craft quarters and to determine their role in shaping the economic structure, social relations, and cultural continuity of Central Asian urban life. Particular attention is devoted to the interaction between craft production and urban development, as well as to the influence of professional specialization on the internal structure of medieval cities. The research draws upon archaeological materials, written historical sources and modern scholarly studies. Comparative historical analysis, spatial interpretation, and interdisciplinary approaches are applied to examine the distribution of craft settlements and their connection with markets, trade routes, water resources, religious institutions, and administrative centers.

The results show that craft mahallas were not accidental residential clusters but carefully structured production environments formed through labor division, professional specialization, demographic growth, and the expansion of market relations. The concentration of craftsmen within defined urban quarters facilitated technological continuity, ensured the transmission of skills through apprenticeship traditions, and supported the development of stable professional communities. Such organization promoted cooperation among artisans, improved production efficiency, strengthened the standardization of goods, and contributed to the formation of collective professional identities. Craft mahallas also served as important social institutions where occupational ethics, customary norms, and systems of mutual assistance were preserved and transmitted from generation to generation.

Archaeological data from sites such as Yerkurgan, Afrasiyob, Akhsikent, Shahrukhiya, and other urban centers demonstrate that workshops, storage spaces, residential buildings, and trading areas often operated within a unified urban setting. Excavated remains of furnaces, ceramic kilns, metallurgical workshops, weaving facilities, and water supply systems indicate a high degree of urban planning and economic coordination. The placement of craft quarters near marketplaces, caravan routes, and water sources reflects both technological requirements and broader economic strategies of medieval urban planning. Access to raw materials, transportation networks, and commercial centers played a decisive role in determining the location and specialization of particular craft communities.

The article concludes that craft mahallas represented an essential institutional element of urban civilization in the Turan region. They functioned simultaneously as production centers, social communities, educational environments, and channels of cultural transmission, contributing to economic resilience, technological development, and urban growth.

References:

1. Isomiddinov, M., Yarqulov, A. (2014). *Naxshab hunarmandchiligi tarixi* [History of craft production in Nakhshab]. Tashkent: Yangi nashr.

2. Hamidova, M. (2009). *Qashqadaryo vohasi hunarmandchiligi tarixi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)* [History of crafts in the Kashkadarya oasis (late 19th - early 20th centuries). Tashkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.

3. Askarov, A. (1977). *Drevnezemledelcheskaya kultura epohi bronzy yuga Uzbekistana* [Ancient agricultural culture of the Bronze Age in southern Uzbekistan].Tashkent: Fan.

4. Shorahimov, Sh. (1974). Afrosiyob kulollarining mahallalari [Pottery quarters of Afrasiab]. In: Arxeologlar hikoya qiladi [Archaeologists tell the story]. Tashkent: Fan. Pp. 39-46.

5. Belenickij, A. (1940). Organizaciya remesla v Samarkande XV–XVI vv [Organization of crafts in Samarkand in the 15th–16th centuries]. In: *Kratkie soobshcheniya o dokladah i polevyh issledovaniyah instituta istorii materialnoj kultury*. [Brief reports on reports and fieldwork of the Institute for the History of Material Culture]. Issue VI. Moscow-Leningrad: Izdatel'stvo Akademii Nauk SSSR. Pp.189-201.

6. Qilichev, R. (1996). *Buxoro shahrida hunarmandchilik* [Craft production in Bukhara]. Tashkent: Fan.

7. Mukminova, R. (1976) *Ocherki po istorii remesla v Samarkande i Buhare v XVI v.* [Essays on the history of crafts in Samarkand and Bukhara in the 16th century]. Tashkent: Fan.

8. Shaydullayev, Sh. (2009). *O'zbekiston hududida davlatchilikning paydo bo'lishi va rivojlanishi bosqichlari (Baqtriya misolida)* [Formation and development of statehood in Uzbekistan (on the example of Bactria)]. The dissertation for Doctor of Historical Sciences. Samarqand.

9. Rempel, L.I. (2023). *Cep vremen. Vekovye obrazy i brodyachie syuzhety v tradicionnom iskusstve Srednej Azii* [The chain of time . Centuries-old paintings and brodyachie plots in the traditional art of Central Asia]. Tashkent: Izdatelstvo literatury i iskusstva imeni Gafura Gulyama.

10. Normurodov D. (2023). *Banokat – Shohruxiya* [Banokat-Shahrukhiya]. Tashkent: Fan.

11. Anorboyev, A., Islomov, U., Matboboyev, B. (2001). *O'zbekiston tarixida qadimgi Farg'ona* [Ancient Fergana in the history of Uzbekistan]. Tashkent:Fan.

12. Muhammadjonov, A. (1994). *Temur va temuriylar saltanati* [Timur and the Timurid Empire]. Tashkent: Qomuslar.

13. Bobur, Zakhiriddin Mukhammad. (2008). *Boburnoma* [The Baburnama]. Tashkent: O'qituvchi.

14. Olufsen, O. (1911). *The Amir of Bukhara and his country*. London: William Heinemann.

15. Azimov, M. (ed.) (1998). *History of civilizations of Central Asia*. Vol. 4. Paris: UNESCO publishing.

16. Ziyayeva, D. (2017). *O'zbekiston shaharlari XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida* [Cities of Uzbekistan in the late 19th – early 20th centuries]. Tashkent: Yangi nashr.

17. Krectyakovskij, V. (1987). *V gostyah u Buharskogo emira* [Visiting the Emir of Bukhara]. Sankt-Peterburg: Izdanie A.S.Suvorina.

18. Isomiddinov, M., Sulejmanov, R. (1984) *Erkurgan (stratigrafiya i periodizaciya)* [Yerkurgan (stratigraphy and periodization)]. Tashkent: Fan.

19. Sukhareva, O. (1966) *Buhara. XIX – nachalo XX vv. (Pozdnefeodalnyj gorod i ego naselenie)* [Bukhara in the 19th – early 20th centuries (Late feudal city and its population)]. Moscow: Nauka.

20. Sukhareva, O.A. (1958) *K istorii gorodov Buharskogo hanstva (istoriko-etnograficheskie ocherki)* [On the history of the cities of the Bukhara Khanate (historical and ethnographic essays)].Tashkent: Fan.

21. Ulzhayeva, Sh. (2017). *Amir Temur davlat boshqaruvi* [State administration of Amir Timur]. Tashkent: Akademnashr.

22. Shoniyozov, K. (1990). *Qang' davlati va qang'lilar* [The Kang state and the Kang tribes]. Tashkent: Fan.

Muallif haqida ma'lumot:

PO'LATOV Otabek Orifjon o'g'li – O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy tadqiqot instituti UNESCO bilan ishlash bo'limi kichik ilmiy xodimi. E-mail: pulatovotabek43@gmail.com